



**BRONXIAL ASTMA KASALLIGIDA "ASTMA MAKTABI" KASALLIK
KUCHAYISHI PROFILAKTIKASI SIFATIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11634515>

Ruzmatova Xiloloy Qobilovna
Mamatxonov Xikmatillo Ubaydullo o'g'li
Central Asian Medical University.
Farg'ona, O'zbekiston.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bronxial astma kasalligi to'g'risida va kasallikni davolashda astma maktabi ro'li to'g'risida.

Kalit so'zlar

bronxial astma, allergik xastalik, astma-maktab, xansirash, xurujsimon yo'tal.

Kirish. Yer yuzasining 4-10% qismi bronxial astma (BA) bilan kasallangan, bolalar o'rtasida tarqalganligi 10-15% ni tashkil etadi. 10 yoshgacha - o'gil bolalarda, katta yoshdagi ayollarda ko'p uchraydi. Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha 235 mln odam bronxial astma (BA) dan aziyat chekadi. 2005-yilda JSST ma'lumotiga ko'ra 255 ming xolatda bronxial astma (BA) o'limga sabab bo'lgan. 2017-yil dekabr oyidagi esa bu ko'rsatkich 383 mingga yetgan.

Bizning davlatimizda ham allergik xastaliklarning, jumladan: BAning so'nggi 5 yil mobaynida 0,7% dan 17,5% gacha ko'payishi kuzatildi, bu esa BAning deyarli 20 marotaba oshganligidan dalolat beradi. Shuningdek, BA qator mamlakatlar, jumladan AQSH, Buyuk Britaniya, Yangi Zenlandiya, Avstraliyada ham ko'payganligi qayd etilgan.

Toshkent shahrida so'nggi 12 yil ichida astma kasalligining tarqalishi 1985-yildagi 1000 kishiga 3,6 holatdan 1997-yildagi 12,1 tagacha oshgan. O'zbekistonda har 10000 kishiga 17ta odam to'g'ri keladi. O'zbekistonda aholining 5%ga yaqin insonda bronxial astma bor. Bronxial astmaga sabab nafas yo'llarining surunkasi yallig'lanishi, shish va balg'amlarning quyqa bo'lib qolib ketishi. Irsiy moyillik, allergiya, noqulay muhit, bakterial va virusli turdagi infeksiyalar, stress, qo'rquv, boshqa hissiy kechinmalar, me'yordan ortiq jismoniy faollik.

Asosiy belgilari:

- Xurujsimon yo'tal;
- Xansirash, qiyinlashgan nafas;
- Balg'am ajralishi;
- Nafas olganda xirillash.



Xavfli jihatlari:

- Tez-tez astma xurujlari quyidagilarga sabab bo'lishi mumkin;
- pnevmotoraks (plevra bo'shlig'ida havo to'planishi);
- o'pkaning emfizematoz buzilishlari;
- o'tkir turdagi nafas yetishmovchiligi.

Bronxial astma rivojlanishining oldini olish uchun shifokorlarning tavsiyalari:

- kamharakat turmush tarzini olib bormang, ko'proq vaqtingizni uydan tashqarida, toza havoda o'tkazing;
- allergiya keltirib chiqaradigan oziq-ovqatlarni iste'mol qilmang;
- davolovchi mashqlar darslarida qatnashing;
- atrof-muhitni zaharlaydigan qo'zg'atuvchilardan saqlaning (masalan, tamaki tutuni).

“Astma maktab” haqida tushuncha.

Bronxial astma bilan og'rigan bemorlar uchun sog'liqni saqlash maktabi (Astma-maktab) - bu ma'lum vaqt davomida o'z kasalliklariga doir bir qator mavzularni o'rganadigan bemorlar bilan mashg'ulotlarning muntazam shakli. Bu maktabda yangi kelgan bemorlarga dori-darmon, ingalyator, nafas mashqlari va hokazolarni o'rgatish to'g'ri targ'ib qilinadi.

Maqsad: BA bilan xastalangan bemorlarda klinik funksional o'zgarishlarga o'qitish dasturining ahamiyatini baholash.

Vazifalar: 1. Individual o'qitish dasturi olib borilgan BA bemorlarida klinik belgilar intensivligining dinamikada o'zgarishini baholash.

2. BA bemorlarida ventilyatsion ko'rsatkichlarga o'qitish dasturining ta'sirini o'rganish.

O'qitish dasturlari:

1. Bemorga kasalligi to'g'risida to'liq malumot berish.
2. Kasalligining kelib chiqishi, etiologik omillari to'g'risida tushuntirish.
3. Bemor BA bo'yicha o'z-o'zini nazorat qilishni o'rgatish.
4. BA bemorlariga kasallikni remissiya davrida nomedikamentoz chora-tadbirlarni o'rgatish.
5. Bronxlarni kengaytiruvchi va gormonal ingalyatorlardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

6. Nafas mashqlarini o'rgatish.

Tadqiqot usullari.

Meridian klinikasida 28 ta asosiy guruh va 7 ta nazorat guruhi bemorlarida tekshirish olib borildi. Bunda o'pkaning tiriklik sig'imi Pikfloumetriya usulidan foydalanib, bemorlardagi tashqi nafas funksiyasi bilan bog'liq hayot sifati ko'rsatkichlari baxolandi. O'qitish dasturi olib borilgan bemorlarda klinik belgilar intensivligining dinamikada o'zgarishini %larda hisoblab borildi.



Tadqiqot natijalari. O'qitish dasturlari olib borilgan BA bemorlarida yo'tal intensivligi dasturdan oldin 50%, dasturdan keyin esa 21.4%ga kamaydi. Yo'tal bilan balg'am ajralishi 21.4% (39.2% dan 17.8 gacha) kamaydi, kechki hansirash 17.9% ga (28.6% dan 10.7% gacha), kunduzgi hansirash 21.4% ga (35.7% dan 14.3% gacha), kunduzgi xurujlar soni esa 35.7%ga (89.3% dan 53.6% gacha) kamaydi.

Xulosa tarzida aytadigan bo'lsak, yurtimizga astma-maktabini rivojlantiradigan bo'lsak bronxial astmaga chalingan insonlar o'zilarini davolashda to'g'ri va tezroq yondashilgan bo'lar edik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gadaev A.G. Ichki kasalliklar. Darslik. Toshkent, 2019 y.
2. Убайдуллаев А.М. Клиническая пульмонология. Руководство. Ташкент 2015 г.
3. А.В. Тумаренко, канд. мед. наук, В.В. Скворцов, докт. мед. наук,
4. М.В. Луньков, З.З. Ильясова, Е.М. Скворцова, канд. мед. Наук
Волгоградский государственный медицинский университет
E-mail: vskvortsov1@ya.ru